

BOJXONA TIZIMINING SAMARADORLIGI - YASHIRIN IQTISODIYOT HAJMINI KAMAYTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA

Zaxro Orifjonovna Quvatova

Bojxona qo'mitasining Bojxona instituti katta o'qituvchisi

Toshkent, O'zbekiston. zahrokuvatova@gmail.com

ORCID: 0009-0000-1872-6473

Annotatsiya: *Mazkur maqolada bojxona tizimining samaradorligini oshirish orqali yashirin iqtisodiyot hajmini kamaytirish masalalari tahlil etilgan. Unda bojxona organlarining iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashdagi o'rni, ularning fiskal va nazorat funksiyalari, shuningdek, zamonaviy raqamlashtirish jarayonlarining ahamiyati yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *bojxona tizimi, yashirin iqtisodiyot, bojxona ma'muriyatchiligi, xavflarni boshqarish tizimi, bojxona auditi, kontrabanda, raqamli bojxona.*

Bugungi globallashuv sharoitida har qanday davlatning iqtisodiy barqarorligi va xavfsizligini ta'minlashda bojxona tizimi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bojxona organlari nafaqat davlat budjetining muhim daromad manbai, balki mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati eshigi hamdir. Shuning uchun bojxona ma'muriyatchiligining samaradorligi to'g'ridan-to'g'ri mamlakatdagi yashirin iqtisodiyot hajmining qisqarishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Yashirin iqtisodiyot, xufiya iqtisodiyot - ishtirokchilar tomonidan oshkora olib borilmaydigan, davlat va jamiyat tomonidan nazorat qilinmaydigan, soliqlar to'lanmaydigan, rasmiy davlat statistikasida qayd etilmaydigan iqtisodiy jarayonlar, iqtisodiy faoliyat turlari. Yashirin iqtisodiyot oshkora payqab bo'lmaydigan tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash, iste'mol jarayonlari - iqtisodiy munosabatlar bo'lib, uning negizida ayrim kishilar yoki kishilar guruhi manfaatlari yotadi. Yashirin iqtisodiyot dunyoning deyarli hamma mamlakatlarida mavjud [1]. Iqtisodiyotning bu turi jamiyatda iqtisodiy faoliyatni keng jamoatchilikdan yashirish uchun qulay bo'lgan taqdirda va bunga sharoit mavjudligida paydo bo'ladi. Yashirin iqtisodiyotning kelib chiqishi va rivojlanishiga esa quyidagilar misol bo'la oladi:

solliqlarning oshirilishi;

turli xil litsenziya, sertifikat va ruxsatnomalar olinishida ko'zda tutilmagan xarajatlarning mavjudligi;

xomashyo mahsulotlari yetkazib berilishida tegishli hujjatlarni rasmiylashtirishdagi qiyinchiliklar [2].

Yashirin iqtisodiyot - mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga jiddiy tahdid soluvchi omillardan biridir. U milliy budjet daromadlarini kamaytiradi, iqtisodiy raqobat

muhitini buzadi hamda qonuniy tadbirkorlik faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Yashirin iqtisodiyot, odatda, soliq va bojxona to'lovlaridan bo'yin tovlash, kontrabanda, noqonuniy savdo hamda norasmiy ishlab chiqarish faoliyati orqali namoyon bo'ladi. Mazkur jarayonlarga qarshi kurashda bojxona organlari muhim huquqni muhofaza qiluvchi tuzilma sifatida alohida o'rin tutadi. Ular tovarlar va transport vositalarining davlat chegaralari orqali qonuniy o'tishini nazorat qiladi, bojxona qonunchiligiga rioya etilishi ustidan tizimli monitoring olib boradi hamda aniqlangan huquqbuzarliklar yuzasidan tegishli choralarni ko'radi. Bundan tashqari, bojxona xodimlari xalqaro savdo jarayonlarida shaffoflikni ta'minlash, noqonuniy tovar aylanishining oldini olish, iqtisodiyotning "soya sektori"ni qisqartirish orqali mamlakat iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Shu bois, bojxona tizimining samarali faoliyati nafaqat davlat moliyaviy manfaatlarini himoya qilish, balki iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning ham asosiy omillaridan biridir.

Bilamizki, bugungi kunda barcha sohalarida olib borilayotgan raqamli islohotlardan bojxona ham mustasno emas. Bunga yaqqol misol qilib, "Yagona darcha", "E-bojxona" va shu kabi yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimlarining bojxona organlarida yaratilishi hamda bojxona organlari xodimlarining ish faoliyatida joriy etilishini olishimiz mumkin. Bu kabi axborot tizimlari xodimlarning ish samaradorligi va unumdorligini oshirib, ish jarayonida inson omilini kamaytirgan holda, qog'ozbozlik va shunga o'xshash muammolarga yechim bo'lmoqda. Shu bilan bir qatorda ushbu raqamli islohotlar natijasida chegara bojxona postlaridagi ko'plab huquqbuzarliklarning oldi olinmoqda. Bu islohotlarning joriy etilishi ko'plab qonun hujjatlar bilan ham mustahkamlab qo'yilgan. Misol uchun, 2020-yil 5-oktyabrda qabul qilingan "Raqamli O'zbekiston-2030" startegiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'grisidagi" PF-6079-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonida bojxona tizimida ko'plab raqamli isslohotlarni amalga oshirish chara tadbirlari keltirilib o'tilgan [3]. Ushbu farmonda qanday axborot tizimlari qayerlarda, kim tomonidan amalga oshirilishi va qaysi manbalardan moliyalashtirilishi aniq qilib ko'rsatilgan.

Bundan tashqari, "Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar" to'g'risidagi Prezidentimizning 6098-son farmoni ham yashirin iqtisodiyotni oldini olish uchun dastur-amal sifatida xizmat qiladi [4]. Unga ko'ra mamlakatimizda yashirin iqtisodiyot darajasini pasaytirish, tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun, shu jumladan tartibga solish va ma'muriy yukni kamaytirish hisobiga teng raqobat sharoitlarini yaratish, soliq qonunchiligi talablariga rioya qilish tartib-taomillarini avtomatlashtirish va uning tartibini soddalashtirish maqsadida:

rieltorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar uchun aylanmadan olinadigan soliq stavkasi 25 foizdan 13 foizgacha pasaytiriladi;

shartnoma tuzmasdan ishga yo'llangan shaxslarga ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar ro'y bergan taqdirda xodimlarni ijtimoiy himoya qilishni nazarda tutuvchi qonun hujjatlari normalari tatbiq etiladi;

tadbirkorlarga faoliyatini qonuniylashtirishda va zarur ruxsatnomalarni olishda yordam berish, shuningdek, ular bilan profilaktika ishlarini olib borish;

yashirin iqtisodiyotning shakllanishiga olib keladigan sabablar va omillarni aniqlash, ularni bartaraf etish choralari ko'rish;

noqonuniy olib kirilgan yoki kontrafakt tovarlarni, shuningdek, yuk tashish hujjatlarisiz mamlakat ichida harakatlanayotgan tovarlarni sotishga qarshi kurashish;

birinchi navbatda aksiz osti mahsulotlarni noqonuniy ishlab chiqarish, sotish va saqlash holatlarini aniqlash orqali davlat ro'yxatidan o'tmasdan tadbirkorlik faoliyatini yuritish va daromadlarni yashirishning oldini olish kabi masalalari ko'rsatib o'tib ketilgan.

Yana bir islohotlardan biri, "Yagona darcha" tizimi import va eksport jarayonlarida ishtirok etuvchi barcha idoralarni birlashtirib, hujjatlarni elektron tarzda almashinish imkonini yaratdi. Ushbu raqamli islohotning huquqiy asosi bo'lib, 23-aprel 2019-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

PQ - 4297-sonli "Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda ma'muriy tartib-taomillarni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori xizmat qiladi[5]. Bu qarorda, "Yagona darcha" bojxona axborot tizimini joriy etishda tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlariga quyidagi imkoniyatlarni yaratadigan mexanizm nazarda tutilgan:

import, eksport va tranzitga taalluqli barcha tartibga solish talablarini bajarish maqsadida standartlashtirilgan ma'lumotlar va hujjatlarni yagona o'tkazish kanalidan foydalangan holda taqdim etish;

axborot almashinuvning maxfiyligi va xavfsizligini ta'minlovchi normativ-huquqiy baza bilan mustahkamlagan holda, tashqi savdo bitimlariga doir barcha axborotlarni almashish;

davlat bojxona xizmati, vakolatli organlar, shuningdek, tadbirkorlik subyektlari tomonidan ruxsat etuvchi hujjatlarni rasmiylashtirishning bosqichlarini masofadan kuzatish;

barcha uchun ochiq bo'lgan elektron shakldagi ruxsat etuvchi hujjatlar reyestrlarini (keyingi o'rinlarda - Reyestrlar) yuritishga to'liq o'tish;

O'zbekiston Respublikasi va xorijiy mamlakatlardagi epizootik, karantin va fitosanitariya holatlari to'g'risidagi ochiq ma'lumotlarni eng so'nggi ko'rsatkichlar holatida ushlab turish;

dastlabki ma'lumotlar asosida tovarlar O'zbekiston Respublikasi hududiga amalda yetib kelishiga qadar ruxsat beruvchi xarakterga ega hujjatlarni berish [5].

Ma'lumot o'rnida, yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashishda Xavflarni boshqarish tizimi ham muhim o'rin tutadi. Ushbu tizim bojxona xodimlarining barcha yuklarni jismonan tekshirishga sarflaydigan vaqtini qisqartirib, ma'lumotlar tahlili asosida yuqori xavfga ega bo'lgan yuklarga e'tiborni qaratish imkonini beradi. XBT bojxona organlariga kontrabanda, tovar qiymatini noto'g'ri ko'rsatish (invoys qiymatini pasaytirish) va tovar kodini almashtirish kabi yashirin sxemalarni tezkor aniqlashga yordam beradi. Shuningdek, axborot tizimlariga tashqi ma'lumotlar (bank operatsiyalari, soliq organlari ma'lumotlari) integratsiyasi orqali xavf profilini yanada aniqlashtirish va iqtisodiy jinoyatlarni barvaqt oldini olish mumkin. Tovarlar chegara orqali o'tib bo'lganidan keyin amalga oshiriladigan bojxona auditi yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashning yana bir samarali vositasidir. Bu mexanizm orqali tadbirkorlik subyektlarining tovarlarni olib kirishdan keyingi hujjatlari va hisobotlari chuqur tekshiriladi. Bu esa tovarlarni olib kirish vaqtidagi sohta deklaratsiyalar (masalan, tovar qiymatini past ko'rsatish) orqali yashirilgan daromadlarni aniqlash imkonini beradi. Bojxona auditi, bir tomondan, qonuniy ishlayotgan tadbirkorlarga ishonch bildirib, ularning yuklarini tezkor rasmiylashtirishga sharoit yaratadi, boshqa tomondan esa, yashirin iqtisodiyotda ishtirok etishga urinayotganlarni javobgarlikka tortish uchun huquqiy asos yaratadi. Bojxona tizimining asosiy funksiyalaridan biri - kontrabanda va noqonuniy tovar aylanmasiga qarshi kurashish. Kontrabanda - yashirin iqtisodiyotning eng yirik ko'rinishlaridan biri bo'lib, davlatga katta miqdorda soliq va bojxona to'lovlari tushumlarini yo'qotishga olib keladi. Raqamli bojxonani joriy etish doirasida skanerlash, rentgen uskunalari va boshqa zamonaviy texnik nazorat vositalaridan foydalanishni kengaytirish, shuningdek, bojxona xodimlari tayyorgarligini kuchaytirish yashirin yo'llar bilan olib o'tilayotgan tovarlarni fosh etishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, bojxona tizimining samaradorligini oshirish yashirin iqtisodiyot hajmini kamaytirishda strategik ahamiyatga ega. Bojxona organlari faoliyatini raqamlashtirish, "Yagona darcha" tamoyilini to'liq joriy etish, Xavflarni boshqarish tizimini takomillashtirish va tizimli auditni yo'lga qo'yish orqali mamlakat o'zining iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlaydi, budget daromadlarini oshiradi va tadbirkorlik uchun teng raqobat muhitini yaratadi. Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurash faqat nazorat va jarimalar bilan emas, balki ma'muriyatchilikni soddalashtirish va barcha jarayonlarda shaffoflikni ta'minlash orqali ham samarali olib boriladi. Bu esa, o'z navbatida, tadbirkorlarni o'z faoliyatini yashirishdan ko'ra, qonuniy doirada olib borishga undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-sonli farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktabrdagi "Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF - 6098-sonli farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-apreldagi "Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda ma'muriy tartib-taomillarni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ - 4297-sonli qarori.